

## O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI

Jo'rayeva Mushtariy Muxaydinovna  
KIUT Toshkent kimyo xalqaro universiteti  
Namangan filiali pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

*Annotatsiya: Maqolada shaxsni har tomonlama mukammal va barkamol qilib shakllantirish vazifasi eng dolzarb masalalardan biri ekanligi, umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish yo'llari hamda imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qitilishi imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, individual yondashuv, aqliy rivojlanish darajasi, tahlil, umumlashtirish, ommalashtirish, zamonaviy texnologiya, shakl va usul, korreksion tarbiya, artikulyatsiya, tyutor, diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromi, autizm, disleksiya.*

*Аннотация: В статье представлена информация о том, что задача всестороннего совершенного и гармоничного формирования личности является одной из самых актуальных, о путях организации педагогического процесса обучения детей с ограниченными возможностями здоровья в общеобразовательных школах, а также о возможности обучения детей с ограниченными возможностями здоровья наравне с другими здоровыми детьми.*

*Ключевые слова: Инклюзивное образование, индивидуальный подход, уровень психического развития, анализ, обобщение, популяризация, современные технологии, форма и методика, коррекционное воспитание, артикуляция, тьюторство, дефицит внимания, синдром гиперактивности, аутизм, дислексия.*

*Annotation: The article provides information on the fact that the task of forming an individual in a comprehensive perfect and harmonious way is one of the most pressing issues, ways to organize a pedagogical process for teaching children with disabilities in secondary schools, and the possibility of teaching children with disabilities on an equal footing with other healthy children.*

*Keywords: inclusive education, individual approach, level of mental development, analysis, generalization, popularization, modern technology, form and method, correctional education, articulation, tyutor, Attention Deficit Hyperactivity syndrome, autism, dyslexia.*

**KIRISH.** Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi, avvalo, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday holatlarni istisno etadigan, barcha uchun teng muomalani ta'minlaydigan, lekin maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun zarur sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha uchun ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Milliy qonunchiligimizda ham nogironligi bo'lgan shaxslar uchun salohiyatlarini yuzaga chiqarishda teng huquqlar belgilangan. Bugungi kunda nogironligi va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarni yaratish bo'yicha mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'limning muhim muammolaridan biri bo'lgan alohida ta'lim ehtiyojga ega bo'lgan bolalar guruhini aniqlab, ularga sifatli ta'lim shakllarida bilim berish va salohiyatini oshirishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarga ega bo'lgan tamoyillari va yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan maktabning ta'lim faoliyatiga, yo'nalishlariga, hamda imkoniyatlarga (jismoniy, intellektual) mos kelishi maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunidanoq Respublika Hukumati yosh avlodning sog'lig'i, ta'lim hamda tarbiyasi masalalariga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu ishlarning amaliy yechimi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'ini bo'lgan maktab bilan bog'liq. Ta'limimiz diqqat markazida erkin, ongli, o'z va dunyo mamlakatlari milliy va madaniy qadriyatlariga hurmatda bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash turadi. Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimiga "anomal", "nuqsonli", "aqli zaif" kabi atamalar o'rniga "alohida e'tiborga muhtoj", "aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan", "rivojlanishida chetga chiqishlari mavjud" atamalari kirib keldi. Bu hol bunday bolalarning rehabilitatsiya, korreksiya, ijtimoiy hayotga moslashuvlari va integratsiyalashuv (uyg'unlashuv)lari masalalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishiga olib keldi. Asta-sekinlik bilan dunyoga yuz tutgan ta'lim tizimida ham yangi yo'nalish ishlari boshlab yuborildi. Maxsus ta'lim tizimiga muqobil bo'lgan yangi yo'nalish maktablari – inklyuziv maktablari shakllana boshladi. 1996 yildan e'tiboran kirib kelgan va 2000 yildan e'tiboran xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda turli Loyihalar asosida tashkil etib kelinayotgan inklyuziv ta'lim muassasalari dastlab muvaffaqiyatlarga erishishiga qaramay, mazkur qo'llab-quvvatlashlar yakunlangach, maktablarda qator deqsinishlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli ham inklyuziv

ta'limning me'yoriy-huquqiy va nazariy asoslarini puxta o'rganish va u orqali inklyuziv ta'limning samarali tizimiga o'tish xalq ta'limi tizimida dolzarb masala sanaladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46- sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi malumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga mlum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir - birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi. Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lim jarayonida otaonalar bilan ishlash ham muhim. Takidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'lim tizimini rivojlantirishning umumiy jihatlari o'quvchilar uchun teng shartsharoit yaratish bilan bog'liq jarayonlar orqali xarakterlanadi. Bu borada nafaqat ta'lim oluvchining moddiy turmush tarzi, balki uning jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda imkoniyati cheklangan shaxslarga o'quvni tashkil qilishda tegishli shartsharoit yaratish talab etiladi. Mazkur jarayon rivoji o'zida uzluksiz — maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim bilan bog'liq bosqichlarni qamrab olganligi sababli inklyuziv ta'limda tizimli algoritmi vujudga keltirish kerak. Har bir mamlakatda inklyuziv ta'lim tizimi o'sha yerda mavjud an'analar, urf-odat va hukmron qadriyatlar asosida shakllanadi. Shuningdek, turli xalqlarning mentaliteti hamda o'quv tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan qonunchilik jabhasi bu boradagi ustuvor yo'nalishni yo'lga qo'yishga samarali tasir ko'rsatadi. Shu manoda, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini taminlashga xizmat qilayotgan me'yoriy-huquqiy mexanizmning rolini alohida qayd etish o'rinlidir. Tizimning O'zbekistonda rivojlanishi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish jarayoni bosqichli tizimga ega. Prezidentimizning "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2020—2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasi ushbu bosqichning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. 2020—2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasini 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l haritasi"da: — alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumiy o'rta va professional o'quv muassasalariga yuborishga imkon beruvchi tibbiy ko'rsatmalar ro'yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash; — alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish; — ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish va sertifikat berish tartibini ishlab chiqish; — oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida "Defektologiya" ta'lim yo'nalishi o'rniga "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishini kiritish; — alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilim oladigan o'quv muassasalarini maxsus adabiyotlar va metodik-qo'llanmalar bilan ta'minlash jarayonlari bilan bog'liq qator vazifalar belgilangan. Bular O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarni mustahkamlashga yo'naltirilganligi bilan muhim, albatta. Ammo bu yo'nalishni rivojlantirishda ta'limning ijtimoiylashuvi bilan bog'liq jarayonlarga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Shuni unutmaslik joizki, tegishli xorij tajribalariga muvofiq inklyuziv ta'limni tashkil etishda pedagogik jihatlar asosiy o'ringa ega. Xorij davlatlari tajribasi Yevropa mamlakatlari, AQSH va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda ushbu soha taraqqiyoti ijtimoiy xarakter kasb etadi. Masalan, Germaniyada inklyuziv ta'lim sharoitidagi talabalarning ma'lum qismi aralash tarzda oddiy auditoriyalarda tahsil oladi. Biroq ularda individual o'quv jarayoni bilan bog'liq holatlar ham saqlangan bo'lib, o'qish paytida zarur tibbiy yordam olish va nuqsonlarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Oliy ta'limda esa jami talabalarning o'rtacha 4-8 foizi nogironligi bo'lgan talabalaridir. Germaniya qonunchiligiga muvofiq nogironligi bo'lgan talabalar, kundalik hayot uchun zarur hisoblangan maxsus texnik va yordamchi vositalar bilan ta'minlanadi. Ularga doimiy tarzda davlat ijtimoiy xizmatlari orqali ijtimoiy va tibbiy yordam ko'rsatib boriladi. Nogironligi bo'lgan talabalar ota-onalarining daromadlari o'rtacha daromaddan yuqori bo'lsa, ular mazkur harajatlarning ma'lum qismini to'lashlari shart. O'qish jarayonida nogironligi bo'lgan talabalar yordamchi xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Jismoniy va boshqa nogironligi bo'lgan talabalar ko'pincha semestr ishlarini topshirish muddatini uzaytirish, yozma imtihonni og'zaki yoki aksiga almashtirish, shuningdek, imtihonni individual topshirish huquqiga ega. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida inklyuziv ta'lim Germaniya tizimiga o'xshash xususiyatlarga ega. Nogironligi bo'lganlarga ta'lim berish jarayoni ularning kelajakda mehnat faoliyatiga qo'shilishi, jamiyat

bilan erkin ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida inklyuziv ta'lim uzoq vaqtdan beri odatiy o'quv tizimiga kiritilgan. U yerda ta'limning me'yoriyhuquqiy hujjatlari bolalarning barcha toifalari uchun majburiy qilib belgilangan. Shu munosabat bilan aqli zaif va eshitish nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar uchun auditoriyalar yaratildi. Amerikalik olimlarning ilg'or psixologik va pedagogik kontseptsiyalari maxsus pedagogikada katta qatlamni tashkil etadi va inklyuziv ta'limning asosi hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA** Umumiy ta'lim dasturining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun nogiron o'quvchilarga maxsus sharoitlar yaratib berilishi kerak. Avvalo, biz mashg'ulotga yondashuvlarni individualizatsiya qilish, xususan, mashg'ulotni tashkil etish uchun shart-sharoitlarni tanlash, vazifalarni bajarish shaklini individuallashtirish va natijalarni taqdim etishning maqbul usullarini tanlash, natijalarni sifatli baholashga yondashish talab qilinadi. Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarni ishlashga tayyorlashning bilim to'siqlaridan biri bu hatti-harakatlarida passiv rivojlanish va tuzatishga qaratilgan ishlarini amalga oshirishga qaratilgan asoslar to'g'risidagi bilimlardir. Ushbu bilimlar orqali alohida ehtiyojga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilishda pedagogik faoliyatning dolzarb vakolatlarini shakllantirishdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining psixologik bilimlari va pedagogik vakolatlarini oshirishga qaratilgan maxsus treninglarni tashkil etish alohida muhim rol o'ynaydi.

**MUHOKAMA** Ushbu treninglarning vazifalariga pedagogik vakolatlarini motivatsiyali ravishda amalga oshirish kiradi. O'quv faoliyatining mazmuni quyidagilarga qaratilgan: o'qituvchilar inklyuziya falsafasini qabul qilishlari; bolani kuzatish, uning xulq-atvori va ta'limidagi o'zgarishlarni qayd etish malakalarini oshirish; pedagogik muammolarni hal qilishda bolaning ota-onasi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish va bu o'zaro ta'sirni bola rivojlanishi uchun uning natijalarining maksimal samaradorligi bilan tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani maxsus sinflarga va integral sinflarga qo'yish (ko'chirish) ota-onalarning (qonuniy vakillarning) iltimosiga binoan amalga oshiriladi va ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Maxsus va yaxlit sinfda ta'lim (TPK) tomonidan tavsiya etilgan umumta'lim dasturlari va chuqur dinamik psixologik-pedagogik imtihon ma'lumotlari asosida sinf rahbarlari va Kengash a'zolari tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan individual yo'naltirilgan o'quv rejalari va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Nogiron bolani rivojlanishi uchun uni qayta ijtimoiylashtirish jarayonlariga qo'shilishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish kerak. Bunday muhit o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtirishga, shuningdek, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishda psixologik yordam ko'rsatishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limda ishlash uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi. - o'qitishning moslashuvchan shakllariga, interfaol o'qitish uslublariga ega bo'lish; - bilish faoliyati mustaqilligini rag'batlantirish qobiliyati; - jamoada ishlash qobiliyati, alohida ehtiyojli bolalar ta'limi uchun psixologik-pedagogik yordamni yaratish uchun mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lish; Nogiron bolalarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchining har xil turdagi sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikdagi va individual faoliyatini tashkil etish qobiliyatini taxmin qiladi har bir bolaning tarixi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni to'plash ularni qobiliyati haqidagi bilimlarni oshirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablardan biri bu bolaning hissiy barqarorligini nazorat qilish talabidir. Inklyuziv ta'lim o'qituvchisi mentalitetining (Mentalitet-ijtimoiy yoki etnik guruhga, millatga, xalqqa, millatga xos bo'lgan aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlar, qiymat yo'nalishlari) tarkibiy xususiyatlari bu munosabatdir: bolaning qadr-qimmatiga, uning qobiliyatlari va yutuqlaridan qat'iy nazar, har kimning tengdoshlari bilan muloqot qilish, qo'llab-quvvatlash va do'stlik qilish huquqidir. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta'limi ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o'sib ulg'ayishlari taminlansa, sog'lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki o'zgacha rivojlanishga ega bo'lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo'ladi. Shu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi - «Inklyuziv maktablardan – inklyuziv jamiyat sari» shiori asosiga qurilgan. Barcha toifadagi bolalarni qamrab olgan holda umumiy ta'lim tizimida o'quvchilarni o'qitish va ularning tengligini ta'minlash orqali nogironligi bo'lgan bolalar kelajakda ijtimoiy hayotda o'z o'rnlarini topishlari mumkindir. Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli targ'ib etish uchun ba'zi qoidalarga amal qilgan holda moslashuvchan muhitni yaratish juda muhim hisoblanadi. Aynan shu qoidalar sifatli ta'lim garovidir.

**XULOSA** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'limda pedagogik jarayonning mazmun komponenti alohida ehtiyojli bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarkibning o'zgaruvchanligini ta'minlashdan iboratdir. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni ma'suliyatini his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga kata umid bilan qaraladi. Ko'plab mamalatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati chaklangan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar mavjud ularning

vazifasi esa ularni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlash hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga shart-sharoit yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF 6108-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonuni». // – Toshkent, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni.
5. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya. Xalqaro YuNISEF tashkiloti. – Toshkent, 1992. – 48 b.
6. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
7. Ахмедов, Б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности кластерных систем в непрерывной образовательной среде. Eurasian Education Science and Innovation Journal, 1(22), 15-19.
8. Akhmedov, B. A., Shuhrat, K., (2020). Cluster methods of learning english using information technology. Scientific Progress, 1(2), 40-43.
9. R.SHomaxmudova «Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari»- Razzoqov O.J- Toshkent-2007 yil
10. Tadjieva. S.X., Xusanova X.T., Majidova D.A. Kam ta'minlangan ko'p farzandli oilalar bilan ijtimoiy ish: tajriba va amaliyot. – T.: Fan va texnologiya, 2014
11. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical simulation of nonlinear vibrations of discrete mass with harmonic force perturbation. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10 (4), 71-75.